O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIGA OID ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR”MODULI BO‘YICHA

Ma’ruza matnlari

Andijon 2024

“Tasdiqlayman”

VPYM O‘MM direktori-

_____M.Abdullayeva

“____”_____2024 yil

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIGA OID ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR”MODULI BO‘YICHA

*Ma’ruza matnlar*i

“KIRITILDI”

“Maktabgacha,boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri

_____ N.Karimova

2024- yil «____ » yanvar

“KELISHILDI”

O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

_____ O‘.Jabborov

2024- yil «____» yanvar

Ushbu ishchi ma’ruza matni kafedraning 2024 yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan hamda tasdiqga tavsiya etilgan

Andijon – 2024 yil

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITA**	**6**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**8**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI**	**37**
V.	**ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**	**39**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**41**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI**	**42**

I. KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Har bir sohaning jadal rivojlanishi, uning huquqiy bazasining nechog‘lik mustahkam va mukammalligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababdan ham davlatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy bazani yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘sib kelayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Shu bilan birga, 2019-yil 16-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarorida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, ta’lim tizimi islohotlari doirasida maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash maqsad qilib belgilangan va mazkur maqsad va vazifalarning samaradorlik ko’rsatkichlari belgilab berilgan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son, 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-son, “Davlat maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 135-son, 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarorlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Shulardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir xodim samarali ish faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi lozim.

Modul maqsadi: Ushbu o‘quv modul oraqli tinlovchilar “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyati haqida ma’lumotlar va tushunchalar berish.

Kutilayotgan natijalar:

Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining yanada takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlarning huquqiy jihatlari; maktabgacha ta’lim sohasida tashkiliy faoliyatning maqsadlari, vazifalari, mazmuni; maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malaka tavsiflari va ularning huquq va majburiyatlari kabi bilimlani bilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni me’yoriy huquqiy asoslarga ko’ra tashkil etish; maktabgacha talim tashkilotini attestatsiyadan o‘tkazish; ota-onalar bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish; ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish kabi faoliyatlarida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish ko‘nikmalari va malakalariga ega bo’lishi kerak.

II. TEXNOLOGIK XARITA

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**1-Mavzu: Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati.** (nazariy 2 soat)			
30 daqiqa	O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning mazmun mohiyati.	Tinglovchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi va davomati tekshiriladi. Maktabgacha ta’limning me’yoriy huquqiy hujjatlari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. “Aqliy hujum metodi”	Tarqatma materiallar slaydlar	Mashg‘ulotga tayyorlanadilar. Mavzu va maqsad yozib olinadi
30 daqiqa	2019-yil 16 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunlarining mazmun mohiyati.	”BBB”, “Bahs munozara”metodi orqali reja tinglovchilarning bilimlari o‘rganiladi.	BBB metodi kartochkalari	BBB metodi kartochka-larini to‘ldiradilar va o‘z fikrlarini izohlaydilar
30 daqiqa	Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yangilangan talablari va tamoyillar.	“Tushunchalar tahlili” “Aqliy hujum metodlari orqali olingan bilimlar ko‘rsatiladi	Tushunchalar tahlili” metodi blankalari	Olingan tushunchalar tahlil qilinadi
80 daqiqa	**2-Mavzu: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.** (nazariy 2 soat)			
30 daqiqa	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini	“Tushunchalar tahlili” “Aqliy hujum metodlari orqali olingan bilimlar ko‘rsatiladi	Tushunchalar tahlili” metodi blankalari	Olingan tushunchalar tahlil qilinadi

	tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori.			
30 daqiqa	2023-yil 26-maydagi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-79 sonli farmoni.	“Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanib maktabgacha ta’limning huquqiy me’yoriy hujjatlari o‘rganiladi	Tarqatma materiallar	Me’yoriy huquqiy hujjatning xususiyatlarini yoritib beradilar
30 daqiqa	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish.	“Blis so‘rov” metodi,“Tarmoqlash” metodlari	Slayd, taqdimot tarqatma materiallar	Davlat xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy me’yoriy hujjatlar o‘rganilib tahlil qilinadi
80 daqiqa	**3-Mavzu: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim sohasiga oid qarorlarning mazmuni.** (amaliy 2 soat)			
20 daqiqa	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.	“Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanib maktabgacha ta’limning huquqiy me’yoriy hujjatlari o‘rganiladi	Tarqatma materiallar slaydlar	Mu’yoriy huquqiy hujjatlarning xususiyatlarini yoritib beradilar
30 daqiqa	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9- martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son qarori..	“Tarmoqlash” metodlari	Tarqatma materiallar slaydlar	Mu’yoriy huquqiy hujjatlar o‘rganilib tahlil qilinadi

30 daqiqa	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son qarori	“Tushunchalar tahlili”	Tarqatma material va krassvordlar bilan ishlaydi	Mavzu bo‘yicha fikrlar bildiriladi. Mavzuga yakun yasaladi

III. MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR

1-Mavzu: Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning mazmun mohiyati.

2. 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun mohiyati.

3. Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yangilangan talablari va tamoyillari.

1.Mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga oid qonunlar bilan tanishar ekanmiz, eng avallo O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan **“Ta’lim to‘g‘risida”gi** qonuniniga to’htalib o’tamiz. Mazkur qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta’lim tashkiloti — davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplari ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi; ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi; ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta’limning uzluksizligi va izchilligi; o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi; davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi; o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi; jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi; ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi; ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ta’lim olish huquqi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi”deya belgilab qo’yilgan.

Mazkur qonunda ta’lim olish huquqi:

ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta’lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limni va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ta’lim olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Ta’lim tizimi, turlari va shakllari.

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta’lim turlari

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

professional ta’lim;

oliy ta’lim;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

2. 2019-yil 16 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunning mazmun mohiyati.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni mazmun mohiyatiga to’htaladigan bo’lsak, har bir sohani jadal rivojlanishida yaratilgan huquqiy bazaning mukammalligi bilan bog‘liq. Davlatimizda maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish bo‘yicha qisqa davr ichida huquqiy baza yaratilib, sohaning rivojlanishiga shart-sharoitlar hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni maktabgacha ta’lim tiziming asosiy huquqiy asoslaridan biridir. Qonun O‘zbekiston Respublikasi Parlamentining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda

ma’qullangan va Prezident tomonidan 2016 yil 16 dekabrda imzolangan[1].(1-ilovaga qaralsin)

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya” to‘g‘risidagi qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi;

maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi;

bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv;

maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi;

ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari qilib: har bir bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishiga bo‘lgan huquqini amalga oshirilishini ta’minlash, bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiyaga to‘liq qamrab olinishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko‘rsatish; bolalarning, shu jumladan alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish, maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirish belgilangan.

Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim berishning muqobil shakllari, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta’lim

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi LEX.UZ.

tashkilotlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan.



Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo‘nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi.

Qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o‘qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi

Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonunda yana bir tarmoq alohida belgilandi ya’ni jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish belgilandi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxslar maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti shaklida ta’lim xizmatlari ko‘rsatadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxslar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan paytdan e’tiboran maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga haqli. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘pi bilan yigirma besh nafar maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolaning ta’lim va tarbiya olishiga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlari tashkil etilganda, turar joy majmualari qurilganda, tegishli hududda maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning qonun hujjatlarda belgilangan cheklangan soni oshganda majburiy tartibda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari

- kasbiy sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish
- ijodiy tashabbus ko‘rsatish, ta’lim va tarbiya uslubiyotlarini, o‘quv qo‘llanmalari hamda ta’lim vositalarini erkin tanlash
- maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish
- maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish
- pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma’naviy va moddiy rag‘batlantirilish
- maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishni quyidagilar amalga oshiradi: pedagogik kengash, kuzatuv kengashi, davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi pedagog xodimlardan iborat bo‘lgan, uning pedagogik faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining kollegial boshqaruv organidir.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi: davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan o‘zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlarining malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilm-fan yutuqlarini va ilg‘or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining xodimlarini ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining va pedagog xodimlarining hisobotlarini eshitadi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytganda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” qo‘nunda maktabgacha ta’lim tizimining huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yilib, maktabgacha ta’lim faoliyatini tashkil etishning asosiy huquqiy manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-269-sonli farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi.

3. Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yangilangan talablari va tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” PF-269-sonli farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi.

Mazkur farmonning 3 bandida maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash maqsadida:

2024-yil 1-iyundan boshlab davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oliy ma’lumotli pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining tegishli pedagog xodimlari bazaviy tarif stavkalarining amaldagi miqdorlariga tenglashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi ”Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni tasdiqlandi..
rezident Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilab qo‘yildi. Bu boradagi eng katta sohalardan biri ta’limdir. Uni izchil rivojlantirish maqsadida, ma’muriy islohotlar doirasida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi. Tizimni tarkibiy maqbullashtirish, zamonaviy dasturlarni joriy qilish, xodimlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Qayd etilganidek, boshlang‘ich sinflarda xorijiy tajriba asosida yangi o‘quv dasturi joriy qilinadi. Yuqori sinflarda o‘qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga kamaytirilib, dasturlarning fanlararo va sinflararo integratsiyasi ta’minlanadi. Bunda

11 ta majburiy va 2 ta tanlov fani tatbiq etiladi. Yangi o‘quv yilidan informatika fani 1-sinfdan o‘rgatiladi.

Hozirda mavzularning 70 foizi kundalik hayot bilan bog‘lanmagan. Endi fanlarning amaliy mashg‘ulotlar ulushi 40 foizdan 60 foizgacha oshiriladi. Bunda mavzular aniq muammoni hal qilish orqali o‘rgatiladi, amaliyot darslari esa loyihani bajarish shaklida o‘tkaziladi.

Maktablarni malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida pedagoglarni sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ya’ni, ishga kirayotgan pedagog 1 yil davomida o‘qituvchi-stajor sifatida faoliyat yuritib, shu muddatda sertifikat olishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchilarga malaka toifasini berish bo‘yicha sinovlar 2 bosqichda tashkil etiladi. Birinchi bosqichda talabgorning mutaxassislik fani bo‘yicha bilimi, ikkinchisida pedagogik mahorati baholanadi. Malaka sertifikati olgan pedagoglarning oylik maoshiga 70 foizgacha miqdorida ustama to‘lanishi mumkin.

Shuningdek, bog‘chalarga malakali tarbiyachilarni jalb qilish uchun 2024-yil 1-iyundan ularning ish haqi stavkalari maktab o‘qituvchilarinikiga tenglashtiriladi.

Umumta’lim maktablariga budjetdan tashqari mablag‘lardan erkin foydalanish huquqi berilgani ularning moddiy ahvolini yaxshilash hamda o‘qituvchilarga qo‘shimcha haq to‘lash imkonini bermoqda. Endi bu tartibni bog‘cha va ixtisoslashgan maktablar uchun ham tatbiq etish mo‘ljallanmoqda.

Malakali rahbarlar muhitini shakllantirish maqsadida hududlarda eng tajribali direktorlardan iborat “Direktorlar kengashi” tashkil etiladi. Endi maktab direktorlari lavozimga mazkur kengash tavsiyasi bilan ochiq tanlov asosida tayinlanadi.

Shuningdek, vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlarining maktablar faoliyatini tekshirish va ta’lim sifatini baholash vakolatlari tugatiladi. Xususiy maktablarni tashkil qilishda qo‘yilgan talablar yengillashtiriladi.

Yig‘ilishda bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xususiy sektorni jalb qilgan holda zamonaviy to‘garaklar ochish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, tizim faoliyatini transformatsiya qilish, o‘qituvchilarning malakasi va rag‘batini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan ?
2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti turlarini sanab bering ?
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy printsiplari ?

Javoblar:

1. O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan.
2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti 4 turga bo‘linadi. Umumiy turdagi maktabgacha

ta’lim tashkiloti, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti, inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotlari ва qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti.

3. Har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi; har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi; maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi;maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi;bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv; maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi;ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi.

2-Mavzu: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
2. 2023-yil 26-maydagi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-79 sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4312-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi», 2019 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari, 2025 — 2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini

rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta’minlovchi muhim manba bo‘lgan sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta’minlash belgilandi.

Konsepsiyada maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi.

1.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

2.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o‘tkazish.

3. Maktabgacha ta’limning muqobil shakllari uchun yangi o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

4. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini keng joriy etish.

5. Tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o‘rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish.

6.Rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar ta’limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta’lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta’lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko‘maklashadigan

moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

7. Maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish.

8. Mashg‘ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini optimallashtirish;

9. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini yuritishga o‘rgatish, gimnastika va faol o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va sportga qiziqish uyg‘otishni shakllantirish, jismonan sog‘lom o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash.

10. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish.

11. Bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish.

12. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta’lim xizmatlari turlari: pullik ta’lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish belgilandi.

Shuningdek konsepsiyada 3 — 7 yoshgacha bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishining ta’minlanishi ko‘rsatildi.

2. 2023-yil 26-maydagi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-79 sonli Farmoni.

2023-yil 26-mayda “Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-79- sonli farmoni tasdiqlangan bo’lib, mazkur farmon bilan:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlar dasturi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi;

Maktabgacha ta’lim agentligining tashkiliy tuzilmasi;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining tashkiliy tuzilmasi;

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlarning xususiy sektorga o‘tkaziladigan funksiyalari ro‘yxati tasdiqlangan.

Quyidagilar: Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida yagona

davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quv va tarbiya jarayonlarining o‘zaro mustahkam aloqasi va uzluksizligini ta’minlash;

b) o‘quv va tarbiya jarayoniga xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmualar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;

v) o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g‘oyalarini yanada chuqur singdirish hamda yot g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish;

g) iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralab olish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o‘quvchilarning umumta’lim fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minlash;

d) pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish va baholash, maqomi hamda obro‘sini mustahkamlash, ularning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishi, shuningdek, ijtimoiy muhofaza qilinishini tashkil etish;

e) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlari sektorini yanada qo‘llab-quvvatlash, uning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

j) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish va mazkur sohalardagi davlat xizmatlarini kengaytirish;

z) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim (shu jumladan, chet tillarini o‘rgatish) sohasida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan ta’lim tashkilotlar tomonidan sifatli ta’lim berilishini ta’minlash.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasida maktabgacha ta’limga tegishli bandlar bilan tanishamiz.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan milliy elektron resurslar va multimedia mahsulotlarini yaratish:

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy va tarbiyaviy mazmundagi milliy elektron resurslar va multimedia mahsulotlarini yaratish;

yaratilgan elektron resurslar va multimedia mahsulotlaridan pedagog kadrlar, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari tomonidan erkin foydalanish imkoniyatini ta’minlash.

2. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari rahbar, uslubchi va pedagog kadrlarining malaka talablarini takomillashtirish:

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari rahbar, uslubchi va pedagog kadrlarining malaka talablarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida

takomillashtirish;

yangi malaka talablari asosida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimi uchun zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish.

3. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish tartibini takomillashtirish:

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish tartibini takomillashtirish yuzasidan Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

bunda, loyihada malaka toifasini olish bo‘yicha sinovlarni bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o‘tkazish va birinchi bosqichda — talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasini, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahoratini baholashni nazarda tutish.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarini lavozimga tayinlashning yangi tizimini joriy etish:

Direktorlik lavozimiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish, ularni o‘qitish, bilim va ko‘nikmasini baholash va sertifikatlashni amalga oshiruvchi “Direktorlar maktabi”ni tashkil etish.

Bunda, ushbu tizim doirasida:

nomzodlar va maktablarning rahbar kadrlari zamonaviy dasturlar asosida o‘qitilishini va ularga menejerlik sertifikatlari berilishini;

menejerlik sertifikatiga ega nomzodlardan maktab direktorlari zaxirasi shakllantirilishini;

maktab direktorlarining vakant lavozimlariga nomzodlarni faqat sertifikati mavjud va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlab olinishini nazarda tutish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlarni tayinlashni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish.

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish.

Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirligining tegishli axborot tizimlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Yagona elektron dastur (erp.maktab.uz) va “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimi (bbit.uz) bilan o‘zaro integratsiya qilish.

Bunda:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun “my.maktab.uz” elektron platformasida joriy yilda ushbu muassasaning mikrohududidan 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar soni to‘g‘risida ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining har o‘quv yili uchun qabul rejasini “my.maktab.uz” elektron platformasida shakllantirish;

bola tug‘ilganidan so‘ng, uni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “my.maktab.uz” elektron platformasi orqali yashash manzili bo‘yicha mikrohududga biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida ro‘yxatga olish;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “my.maktab.uz” elektron platformasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida hamda 6 yoshli bolalarning bir yillik majburiy tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

Quyidagilar maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadlari hisoblanadi:

bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishni ta’minlash;

bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;

umumta’lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta’lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash.

10. Quyidagilar maktabgacha ta’lim tashkiloti vazifalari hisoblanadi:

bolalarga, shu jumladan, o‘ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta’lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o‘z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

bolalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash;

bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang‘ich ta’limga tayyorligini ta’minlash;

ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi

1. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o‘z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

2. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin.

3. Yuridik shaxslar — xususiy mulk huquqi subyektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin.

4. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o‘zgaga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi asosida o‘z ta’lim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturida ko‘rsatilgandan tashqari qo‘shimcha pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ishlanmaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

3-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim sohasiga oid qabul qilingan Qarorlarining ahamiyati.

Reja:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son Qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 13- maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son Qarori

1.“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “**Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi 802-son qarori tasdiqlandi.

Mazkur qarorga ilova tarzida davlat standartining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari; maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasi; davlat standartini joriy etish hamda unga rioya etilishini nazorat qilish; davlat standartining tarkibiy qismlari, jumladan: ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari; maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi; maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlarini nazarda tutuvchi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlangan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti (keyingi o‘rinlarda — davlat standarti) davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalarini, prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat standartlarini joriy etish hamda uning talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Davlat standartini amalga oshirishda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya berish sohasidagi o‘quv-metodik qo‘llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Davlat standartini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir.

Davlat standarti kamida besh yilda bir marta qayta ko‘rib chiqiladi.

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’limning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo‘lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish me’yorlarini tartibga solish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsion vositalar bilan jihozlash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Davlat standartining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

har bir bolaning, shu jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi;

davlat standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi;

maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

maktabgacha ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlari

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishdagi gigiyenik talablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qurilish-loyihalash ishlari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablar tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

(8-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning nomi, eng kam (minimal) hajmi va

ularning yoshi bo‘yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o‘quv reja maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun asos hisoblanadi.

Davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat standartida belgilangan talablarni bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazorat vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi:

ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari ijrosi;

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat o‘quv dasturining bajarilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo‘lgan gigiyenik talablarga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurishda idoraviy qurilish me’yorlariga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablariga rioya etilishini tahlil qilish.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari hamda maktabgacha ta’limni boshqarish bo‘yicha yuqori turuvchi tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi;

(15-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

jamoatchilik nazorati — mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlarida tashkil etiladigan jamoatchilik komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar talablari asosida maktabgacha ta’lim boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 9-martdagi

“Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son qarori tasdiqlangan.

Mazkur qarorga asosan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab berilgan bo’lib bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha dastlabki loyihaning ijobiy tajribasini boshqa hududlarda ham tatbiq etish, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, barkamol, ijtimoiy moslashtirilgan bolalarni tarbiyalash, kelgusida muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni boshlang‘ich ta’limga sifatli tayyorlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan va asosiy vazifalari belgilangan:

maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun tayyorlov guruhlarini shakllantirish;

tayyorlov guruhlarining o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

tayyorlov guruhlarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiradigan va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni oshiradigan o‘quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o‘yinlar hamda o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash;

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning davlat talablariga muvofiq har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

tayyorlov guruhlarini tashkil etishda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini keng joriy etish;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda maktabgacha ta’lim sohasida ham ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi boshqa davlat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Tayyorlov guruhlarida o‘quv yili joriy yilning 2-sentabridan keyingi yilning 31-mayigacha bo‘lgan davrni, yozgi sog‘lomlashtirish davri joriy yilning 1-iyunidan 31-avgustigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi;

Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan hamda ulardan tashqari to‘liq yoki to‘liq bo‘lmagan kun (bir haftada kamida 15 soat ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilgan holda) rejimida tashkil etiladigan tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari boshlang‘ich ta’limga tayyorgarlikdan o‘tgan deb hisoblanadi va majburiy bepul bir yillik tayyorlovdan ozod etiladi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari (keyingi o‘rinlarda — tayyorlov guruhlari) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Tayyorlov guruhlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olinmagan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

3. Tayyorlov guruhlari maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va quyidagilar ularning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qishga tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasidagi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq va ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalar har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlash;

bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

bola shaxsining asoslarini shakllantirish, unda bilimga qiziqishni rivojlantirish.

2-bob. Tayyorlov guruhlarini tashkil etish va ularga bolalarni qabul qilish

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta’lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — hududiy boshqarmalar) tomonidan har yili may, iyun oylarida hududdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarning mavjud kontingenti o‘rganiladi.

Bunday bolalar kontingenti aniqlangan taqdirda, hududiy boshqarmalar tayyorlov guruhlarini tashkil etish to‘g‘risida asoslangan taklif bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligiga murojaat qiladi.

Maktabgacha ta’lim vazirligi taklifni o‘rganib chiqib, bir oy muddatda tayyorlov guruhlarini tashkil etishga qo‘yilgan talablarni hisobga olgan holda hududiy boshqarmalarga tegishli topshiriq beradi.

5. Tayyorlov guruhlarini tashkil etish to‘g‘risidagi buyruq tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan Maktabgacha ta’lim vazirligining tegishli topshirig‘i kelib tushgan kundan boshlab ikki hafta muddatda qabul qilinadi.

6. Tayyorlov guruhlariga kelgusi yilda yetti yoshga to‘ladigan, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormayotgan bolalar ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (keyingi o‘rinlarda — ota-onalar) arizasi va bola sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi tibbiy xulosa asosida qabul qilinadi.

7. Tayyorlov guruhlariga qabul qilingan bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

8. Tayyorlov guruhlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lmagan yoki ularda tayyorlov guruhlarini tashkil etish uchun yetarli sharoit bo‘lmagan taqdirda tayyorlov guruhlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, kollejlar, “Barkamol avlod” markazlari, mahalla

fuqarolar yig‘inlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san’at maktablarida, shuningdek, boshqa mos bino hamda inshootlarda tashkil etiladi.

9. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhlari uchun alohida xonalar ajratiladi va ulardan faqat maqsadli foydalaniladi, zarur bo‘lsa, ularga alohida eshikdan kirish tashkil etiladi.

10. Tayyorlov guruhlarini tashkil etish uchun ajratilgan xonalar belgilangan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

3-bob. Tayyorlov guruhlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish

11. Ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarning ovqatlanishini tashkil etish shartisiz bir haftada kamida 15 soat (bir kunda 3-4 soat) o‘qitishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturiga hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturi asosida tashkil etiladi.

12. Tayyorlov guruhlarida bolalarning bo‘lish vaqti 3-4 soatni tashkil etadi va ta’lim-tarbiya jarayoni bir yoki ikki smenada tashkil etiladi.

13. Bitta tayyorlov guruhidagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak.

14. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bormaydigan va o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bolalar tibbiy moneliklar mavjud bo‘lmaganda, tayyorlov guruhlarida o‘qishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tibbiy moneliklar mavjud bo‘lganda, ota-onalarning hozir bo‘lishi ko‘rsatilgan holda bolaning yashash joyi bo‘yicha davolash-profilaktika muassasasi tomonidan tayyorlov guruhlariga borish uchun ruxsat berish to‘g‘risida xulosa beriladi.

15. Tayyorlov guruhlarida ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi.

16. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan tashqarida tashkil etilgan tayyorlov guruhlari eng yaqin joydagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda barcha hujjatlarni rasmiylashtirish mazkur maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari tomonidan olib boriladi va nazorat qilinadi.

17. Tayyorlov guruhlarida pedagog kadrlar me’yori har bir guruh uchun tarbiyachi — 0,5 shtat birligi, tarbiyachi yordamchisi — 0,5 shtat birligi hamda musiqa rahbari — 0,25 shtat birligi miqdorida belgilanadi.

4-bob. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari

18. Tarbiyalanuvchi, pedagog xodim, ota-onalar tayyorlov guruhlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi.

19. Tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan bepul o‘tish;

davlat tomonidan kafolatlangan hajm doirasida bepul tibbiy yordam olish;

sog‘liq uchun xavfsiz bo‘lgan sharoitlarda ta’lim olish va tarbiyalanish;

sog‘lom turmush tarzini olib borish, bolalarni mehnat qilishga majburlashning har qanday shakllaridan, jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikdan, o‘z sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishidan himoyalanish;

o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan axborotdan himoyalanish.

Tayyorlov guruhlari tarbiyalaruvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

20. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari quyidagi huquqlarga ega:

o‘z bolasining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

o‘z bolasi uchun maktabgacha ta’lim shaklini va ta’lim olish tilini tanlash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari ma’muriyatidan maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlar ta’minlanishini talab qilish;

maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolani rivojlantirish, unga maktabgacha ta’lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan davlat organlariga murojaat qilish;

bolaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab qilish;

ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishida ishtirok etish;

tayyorlov guruhlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni bilan tanishish.

Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

21. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari:

bolaning jismoniy sog‘lig‘i, ruhiy holati haqida qayg‘urishi, uning qobiliyatlari, ishtiyoqlari va iste’dodlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

bolaning boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o‘tishini ta’minlashi;

ta’lim-tarbiya jarayoni boshqa ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta’lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart.

Tarbiyalanuvchilar ota-onalari zimmasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Bolalarning umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga kirguniga qadar boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorgarlik ko‘rishi uchun javobgarlik ularning ota-onalari zimmasiga yuklatiladi.

22. Tegishli kasbiy ma’lumotga, tayyorgarlikka, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan hamda tibbiy ko‘rikdan o‘tgan shaxslar tayyorlov guruhlarida pedagogik va tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egadir.

5-bob. Tayyorlov guruhlari mol-mulki va moliya-xo‘jalik faoliyati

23. Tayyorlov guruhlari faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

24. Tayyorlov guruhlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda hududiy boshqarmalar tomonidan belgilangan tartibda ularning bank hisobraqamlariga o‘tkaziladigan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan jihozlanadi.

25. Tayyorlov guruhlarining mol-mulki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur guruhlar tashkil etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining balansiga kiritiladi.

26. Tayyorlov guruhlarining pedagog xodimlari mehnatiga davlat maktabgacha ta’lim muassasalari uchun belgilangan tartibda haq to‘lanadi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

27. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 13- maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son Qarori

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartiblari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son Qarori maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan asosiy asosiy me’yoriy-huquqiy hujjati hisoblanadi.

Qarorda: Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizom; Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to‘g‘risidagi nizom; Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizom; Bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidag‘i nizomda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari qilib: bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishni ta’minlash; bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash; umumta’lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta’lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash; bolalarga, shu jumladan, o‘ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta’lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o‘z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish; bolalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish; bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash; bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang‘ich ta’limga tayyorligini ta’minlash; ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish belgilandi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o‘z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin. Yuridik shaxslar — xususiy mulk huquqi

sub’ektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o‘zgaga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Nizomda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini tashkil etish ham belgilanib nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs deb ko‘rsatilgan.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi nodavlat ta’lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyin beriladi. Maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki to‘xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o‘yin hisoblanadi. Har bir yosh guruhidagi mashg‘ulotlar, o‘yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv rejasida belgilab beriladi. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

bolalar qisqa muddat (kuniga 3-4 soat) bo‘ladigan guruh

qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha)

to‘liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat)

bolalar kechayu kunduz bo‘ladigan guruh

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi o‘quv yili joriy yilning 2 sentabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo‘lgan davrni, yozgi sog‘lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Guruh maktabgacha ta’lim tashkilotining tarkibiy birligi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to‘ldirilishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini to‘ldirish va bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish har yili o‘quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to‘ldiriladi:

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 30 nafar bola; bolalar qisqa vaqt bo‘ladigan guruhlarda — ko‘pi bilan 30 nafar bola; turli yoshdagi guruhlarda — kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 25 nafar bola; bolalar kechayu kunduz bo‘ladigan guruhlarda — ko‘pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo‘lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarni tashkil etishga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishuv bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining hududiy bo‘linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta’lim muassasasi Kuzatuv kengashi tomonidantanlanadigan mudir rahbarlik qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruvi organlari Pedagogika kengash va Kuzatuv kengashi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to‘g‘risidagi nizomda, qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta’lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to‘laqonli kamol topishini ta’minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo‘ljallangan deb ko‘rsatilgan.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarning quyidagi turlari faoliyat ko‘rsatishi mumkin:

rivojlantirish guruhi; bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi; inklyuziv guruh; kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 30 nafar bola bilan to‘ldiriladi.

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidag‘i nizom ushbu turdagi MTTlar faoliyatini tartibga soladi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda birgalikda o‘qishini va tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan. Qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va

qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo‘lishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarning eng kam soni 6 tani tashkil etadi.

Qo‘shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarning eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak: a) kamida 4 ta inklyuziv guruh; b) quyidagi ixtisosliklardan biri bo‘yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun kamida 4 ta guruh:

eshitishda og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun;

ko‘rishda og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun;

psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta’lim beriladi va tarbiyalanadi:

1.ta’limning korreksion yo‘naltirilganligi;

2.ijtimoiy moslashuvi;

3.ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta’limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

eshitishida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

ko‘rishida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;

aqlik zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to‘ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

- kar tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif eshituchi tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- ko‘zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif ko‘ruvchi yaxshi ko‘rmaydigan tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo‘lgan tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 15 nafar va ko‘pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;

- gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- yengil darajada aqli zaif bo‘lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o‘rta darajada aqliy zaif bo‘lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 6 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

Qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar yoshi bo‘yicha to‘ldiriladi. Qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda uch yoshdan katta bolalarga mo‘ljallangan inklyuziv guruhlar jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning toifasiga qarab to‘ldiriladi hamda quyidagini tashkil etadi:

kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko‘pi bilan jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan (zaif ko‘ruvchilar yoki zaif eshituvchilar yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo‘lgan) 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko‘pi bilan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan (ambliopiya bilan, ko‘zi g‘ilaylik, yoki nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan yoki autizm bilan) 2 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko‘pi bilan nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko‘pi bilan psixik rivojlanishda kechikayotgan 3 nafar bola.

Qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to‘ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagini tashkil etadi:

kar bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar bola;

zaif eshituvchi bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar bola;

ko‘zi ojiz bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar bola;

zaif ko‘ruvchi bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar bola;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda –kamida 15 nafar va ko‘pi bilan 18 nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar bola;

bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bilan bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar bola;

yengil darajada aqli zaif bo‘lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o‘rta darajada aqliy zaif bo‘lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 6 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko‘pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko‘pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rahbarlar, pedagogik va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo‘shimcha to‘lov to‘lanadi.

Nazorat savollari

1. Kuzatuv кengashining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qanday huquqlarga ega?

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo`shimcha pullik xizmatlarni ko`rsatish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Javoblar:

1. Kuzatuv кengashining asosiy maqsadlari muassasaning ustuvor vazifalarini belgilash, maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘linmasi (bundan buyon matnda hududiy bo‘linma deb yuritiladi) tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarini saylash, muassasaning maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash, muassasada amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari kasbiy sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish, ijodiy tashabbus ko‘rsatish, ta’lim va tarbiya uslubiyotlarini, o‘quv qo‘llanmalari hamda ta’lim vositalarini erkin tanlash, maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish, maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma’naviy va moddiy rag‘batlantirilish, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

3. Maktabgacha ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilishi rejalashtirilayotgan qo‘shimcha xizmatlar turlari hamda ular uchun belgilanadigan to‘lovlar miqdori maktabgacha ta’lim muassasasining kuzatuv kengashi yig‘ilishida muhokama qilinishi shart. Maktabgacha ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlarning narxlar preyskuranti tegishli maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘linmasi bilan kelishilgan holda maktabgacha ta’lim muassasasining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI

1	Pedagogning kasbiy standarti deb nimaga aytiladi?	MTT pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui	maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat talablari	bola tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko‘nikmalarning hajmini	ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat	1
2	"Maktabgacha ta’lim va tarbiya" to‘g‘risidagi qonunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qaysi turlari belgilangan?	umumiy turdagi MTT, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTT, inklyuziv guruhlarga ega MTT,qo‘shma turdagi MTT.	davlat xususiy sheriklik asosidagi MTT, nodavlat guruhlarga ega bo‘lgan MTT ,ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTT	inklyuziv guruhlarga ega MTT,qo‘shma turdagi MTT.sanotoriya tipidagi MTT	Ixtisoslash-tirilgan guruhlarga ega, umumiylashtirilgan, oilaviy, maxsus.	1

3	2019 yil 8 maydagi O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?	O‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi, sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda davlat xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soladi.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish reglamentini belgilaydi va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qiladi.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’lim tarbiya jarayonlarini olib borishda o‘quv dasturlari vazifasini bajaradi	1
4	Maktabgacha ta’lim tashkilotining tarkibiy birligi nima hisoblanadi?	guruhlar	pedagogik kengash	kuzatuv kengashi	hamkor tashkilotlar	1
5	Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish qaysi vaqtda amalga oshiriladi?	har yili o‘quv yili boshlanishidan oldin	har oyda bir marta	istalgan paytda	ota-ona arizasi berilgan paytdan	1
6	Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarning turlarini ko‘rsating?	rivojlantirish guruhi, bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi, inklyuziv guruh, kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.	kelajakdagi o‘quvchi guruhi, integrallashgan guruh, muommoli bola guruhi, kuni uzaytirilgan guruh.	bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi, inklyuziv guruh, kelajakdagi o‘quvchi guruhi, integrallashgan guruh	kuni uzaytirilgan guruh, kelajakdagi o‘quvchi guruhi, integrallashgan guruh, muommoli bola guruhi.	1
7	Bolalar qisqa vaqt bo‘ladigan guruhlarda ko‘pi bilan nechta bolalardan iborat guruhlarni tashkil etishga ruhsat beriladi?	ko‘pi bilan 30 nafar bola	ko‘pi bilan 20 nafar bola	ko‘pi bilan 25 nafar bola	ko‘pi bilan 35 nafar bola	1

8	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim tarbiya jarayonlarini nima asosida tashkil etadi?	Ilkva maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq	Maktabgacha ta’lim tashkilotinin ustavi va nizomida belgilangan vazifalarga muvofiq	Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashining buyruqlari asosida	Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori buyruqlari asosida	1
9	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari nechta sohalraga bo‘linadi?	6	4	5	7	3

V. ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019-yil 16-dekabr.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-79-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-yanvardagi “Maktabgacha ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4581-son Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi “Maktabgacha ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5071-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-322-son Qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5144-son Qarori

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang’ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 135-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi “Maktabgacha ta`lim sohasida davlat-xususiy shekriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 426-sonli Qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi “Ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 120-son Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son buyrug‘i.

17. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug’i.

VI. TARQATMA MATERIALLAR

“BBB” metodi kartochkasi

Bilaman		
Bilishni xoxlayman		
Bilib oldim		

(Savol) Maktabgacha ta’lim tizimini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy xujjatlardan qaysilarini bilasiz

“Aqliy hujum” metodi kartochkasi

№	savol	javob
1	Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?	
2	Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish qaysi tartibda amalga oshiriladi?	
3	Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish qaysi tartibda amalga oshiriladi?	
4	Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlar qanday tartibda to‘ldiriladi?	
5	Maktabgacha ta’lim tashkiloti qaysi tartibda boshqariladi?	
6	MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etish qaysi tartibda amalga oshiriladi?	
7	Pedagog tarbiyachilarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?	

“Tushunchalar tahlili metodi”

Maktabgacha ta`lim vazirining buyrugi bilan tasdiqlangan Nizomlar

№	Buyruq	Mazmuni
1		
2		
3		
4		
5		

VII. ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

Termin	sharhi
alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar	nogironligi bo‘lganidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj bo‘lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar
bola tarbiyasining majmui	ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari
davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilot

bayonnoma	barcha organlar tomonidan yuritiladigan faoliyatni, xususan olib boriladigan majlislarni rasmiylashtirish shakli. Sudning har bir majlisi to‘g‘risida, shuningdek sud majlisidan tashqari qilingan har bir alohida protsessual harakat to‘g‘risida bayonnoma tuziladi
buyruq	davlat idoralari, muassasalari tomonidan chiqarilgan yozma hujjat
inklyuziv ta’lim va tarbiya	bolalarning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon
ichki nazorat	davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari hamda maktabgacha ta’limni boshqarish bo‘yicha yuqori turuvchi tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi
maktabgacha bo‘lgan yosh	bolalarning tug‘ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish boshlangan paytga qadar bo‘lgan yoshi
maktabgacha ta’lim va tarbiya	bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi
maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti	ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui
maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi	bola tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko‘nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta’lim va tarbiya mazmunining o‘ziga xosligini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat
maktabgacha ta’lim tashkiloti	maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti
milliy va xalqaro darajada baholash	hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar talablari asosida maktabgacha ta’lim

	boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi
nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs
pedagogning kasbiy standarti	maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui
ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli	maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli
tashqi nazorat	qonun hujjatlarida belgilangan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi
rivojlanish	inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar
qaror	davlat hokimiyati organining o‘z vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha muayyan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan va shu maqsadni amalga oshirish vositalari va yo‘llarini nazarda tutgan boshqaruv vaziyatini tahlil etish va baholashga oid erki ifodasidir. Qaror ijro hokimiyati tegishli organi kompetensiyasi doirasida qabul qilinadigan me’yoriy yoki individual (aniq shaxs yoki vaziyatga taalluqli) huquqiy hujjat ko‘rinishida yuridik rasmiylashtirilishi natijasida huquqiy ahamiyat kasb etadi
qonun	davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish-irodasiga ko‘ra (mas., referendum o‘tkazish yo‘li bilan) qabul qilingan va, qoida tariqasida, eng muxim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat
qonuniy vakillik	muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning vakili sifatida (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar) himoya qiluvchi shaxslar.